O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.24/2026.31.01.Yu.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI

ERGASHEV JAHONGIR SHERALIEVICH

MADANIY BOYLIKLARNI NOQONUNIY AYLANISHIGA QARSHI KURASHISHDA JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

“12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi”

Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFARATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 343.359:351.853(575.1)

Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD) по юридическим наукам

Contents of the dissertation abstract for the Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Ergashev Jahongir Sheralievich
Madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda javobgarlikni takomillashtirish masalalari..... 3

Эргашев Жаҳонгир Шералиевич
Вопросы совершенствования ответственности в борьбе с незаконным оборотом культурных ценностей 27

Ergashev Jahongir Sheraliyevich
Issues of Improving Legal Liability in Combating the Illicit Trafficking of Cultural Property 54

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 58

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.24/2026.31.01.Yu.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI

ERGASHEV JAHONGIR SHERALIEVICH

MADANIY BOYLIKLARNI NOQONUNIY AYLANISHIGA QARSHI KURASHISHDA JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

“12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi”

Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFARATI

Toshkent – 2026

Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/Yu1342 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.proacademy.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar	**Toxirov Farxod** yuridik fanlari doktori, professor
	Shayzakov Shodiyor Ibragimovich yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Xoliqulov Umid Shodiyevich** yuridik fanlari doktori, professor
	Rozimova Qunduz Yuldashevna yuridik fanlari doktori, professor v.b.
Yetakchi tashkilot:	O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/2026.31.01.Yu.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 24-noyabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100047, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9. Tel.: (99871) 202-04-96; e-mail: info@proacademy.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (104-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9. Tel.: (+99871) 202-04-96.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 12-noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil 12-noyabr dagi 23-raqamli reyestr bayonnomasi).

V.Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

K.B.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

G‘.M. Shodiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda giyohvand moddalar, hayvonlar, qurol-yarog‘ va radioaktiv moddalarni kontrabanda yo‘li bilan noqonuniy aylanishi singari, madaniy boyliklarning kontrabandasi ya’ni, uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan (san’at asarlari, qadimiy buyumlar, v.h) noqonuniy aylanishi va yashirin savdosi bilan shug‘ullanish holatlari barcha xalqlarni tashvishga solmoqda, Xalqaro jinoyat politsiyasi tashkiloti - Interpolning ma’lumotiga ko‘ra 2026-yil iyul oyiga qadar dunyo bo‘yicha 56483 ta o‘g‘irlangan va talon-toroj qilingan madaniy boyliklar xalqaro qidiruvi e’lon qilingan. Mazkur xalqaro qidiruvdagi madaniy boyliklar yuzasidan jinoyat ishlari yuritilgan. Dunyo miqyosida tarixiy buyumlar kontrabandasi hali hanuz qurol yaroq va narkotikdan keyingi 3-o‘rinda turadi. BMTning Narkotrafik va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘ylab madaniy boyliklarning noqonuniy aylanuvining hajmi 3,4 - 6,3 milliard AQSH dollarini tashkil qiladi[1]. Dunyo davlatlari bu merosning o‘z qo‘lidan ketishini oldini olishi har bir millat o‘z tarixiga ega bo‘lishini hisobga olib, yangicha ilmiy-nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish va madaniy boyliklarning muhofaza qilish sohasidagi ijtimoyi munosabatlarni jinoyat-huquqiy vositalar bilan qo‘riqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon mamlakatlarida madaniy boyliklarga bo‘lgan talabning yuqoriligi sababli, ularning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish imkonini beruvchi samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish, uyushgan jinoiy guruhlar faoliyatiga barham berish imkonini beruvchi huquqiy ta’sir choralarni qo‘llash masalalarini, bu kabi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish, muammolarni aniqlash va bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniy boyliklarning noqonuniy aylanmasi tufayli Misr, Iroq va Suriya kabi mamlakatlar yiliga milliardlab dollar yo‘qotayotganligi, ushbu mamlakatlardagi madaniy boyliklarning talon-toroj qilinishi ularning turistik salohiyatiga jiddiy putur yetkazgan[2]. Hozirga qadar 20 dan ortiq davlatlar tomonidan ushbu madaniy boyliklar ustidan nazorat bo‘yicha qonunchilik mexanizmlari ishlab chiqilganligi, xususan, Xitoy, AQSH, Italiya, Rossiya, Ozarbayjon, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston kabi davlatlarda madaniy boyliklarga oid alohida qonunlar qabul qilinganligi va javobgarlik choralari belgilanganligi jahonda ularning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish naqadar muhim ahamiyatga ega bo‘layotganligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda madaniy, tarixiy, arxeologik qimmatga ega bo‘lgan ashyolar va kolleksiyalarni qalbakilashtirish orqali talon-toroj qilish, ularni bojxona chegarasidan noqonuniy o‘tkazish bilan bog‘liq huquqbuzarlik holatlarning ortib borayotganligi, IIVning ma’lumotiga ko‘ra respublika bo‘yicha 3710 ta o‘g‘irlangan va talon-toroj qilingan madaniy boyliklar “Antikvar” bazasida qidiruv e’lon qilingan. Mazkur qidiruvdagi madaniy boyliklar

[1] https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/2295245

[2] Ross, P. The Economic Impact of Illicit Trade in Cultural Property. Journal of Cultural Economics, 41(1), p. 55.

.

yuzasidan JKning 167, 169-moddalari bilan jinoyat ishlari yuritilgan. Jumladan, Jinoyat kodeksining 167-moddasi bilan 2015-yil 2 ta jinoyat hisobga olingan bo‘lsa, 2022-yilda 12 tani, 2025-yilda esa 19 taga yetganligi, bundan tashqari hozirgi kunda jami 164 ta madaniy boyliklarga nisbatan Interpolning “Works of art” axborot ma’lumot bazasi orqali xalqaro qidiruv e’lon qilinib, ular bo‘yicha Toshkent shahri, Farg‘ona, Buxoro, Xorazm va Toshkent viloyatlarida jinoyat ishlari qo‘zg‘atilgan[3]. Bu holatda madaniy boyliklar bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashish tizimini ilmiy jihatdan kompleks o‘rganishni, huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish bo‘yicha asosli takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda mazkur yo‘nalishni tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023), O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994), O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi Qonuni (1998), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-261-sonli (2022), “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma’murchiligini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-122-sonli (2025) qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi masalalarini tartibga solish to‘g‘risida” 131-sonli (1999) qarori, Bojxona qo‘mitasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi PQ-122-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida” 68-son buyrug‘i va boshqa qonun hujjatlarining ijrosini amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Madaniy boyliklarni asrash va muhofaza qilish masalalarining ayrim jihatlariga M.H.Rustamboyev, F.F.Abduqodirov, T.X.Xasanov, O.M.Muxamedov, H.M.Mo‘minov, Sh.A.Alimov, N.R.Toshboyev, A.S.Saidov, B.M.Boboyev, Sh.R.Ikramov, D.Qurbonova, M.Xayrullayev, E.Axmedova, R.Gabidullin, E.Gulmetov, T.Qobuljonova, M.F.Rasulov, F.R.G‘ofurov, L.B.Hujaqulov va boshqalarning ilmiy ishlarida e’tibor berilgan. Biroq, o‘zbek olimlari tomonidan madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishini oldini olishning jinoiy-huquqiy jihatlari yuzasidan alohida monografik tadqiqot olib borilmagan.

Ushbu madaniy boyliklarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning nazariy va amaliy jihatlari yuzasidan MDH davlatlari olimlari, shu jumladan

[3] O‘zbekiston Respublikasi IIV Raqamli texnologiyalar va Huquqiy statistika departamentining 2026-yil 11-iyundagi 7/5-1245-sonli xati.

M.Ilyinskiy, A.D.Guryakov, V.S.Gusev, V.I.Loginova, K.P.Nosov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Madaniy boyliklar borasida xorijlik olimlardan D.M.Kotlyarov, Yu.A.Fikleeva, S.V.Ivansov, L.R.Klebanov, K.A.Dikanov, G.A.Rusanov, A.I.Xodanov, Ye.M.Kosisina va boshqalar tomonidan o‘rganilgan[4].

Biroq, shunga qaramay, madaniy boyliklar bilan bog‘liq jinoyatlarni hozirgi davr nuqtayi nazaridan hamda qonunchilik hujjatlariga kiritilgan o‘zgartirishlar asosida tadqiq qilish zarurati mavjud. Shu bilan birga, mazkur jinoyatlar bilan bog‘liq olib borilgan ilmiy ishlarda ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olishda alohida javobgarlikni belgilash va qo‘llanilayotgan jazo choralarining samaradorligi yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda javobgarlikni takomillashtirish masalalari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda javobgarlikni belgilash hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirishga oid ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

madaniy boyliklar tushunchasi va unga oid javobgarlik turlarini yoritish;

madaniy boyliklar muhofazasiga oid normativ - huquqiy asoslari bo‘yicha muammolarni ochib berish;

madaniy boyliklarni noqonuniy aylanmasiga oid huquqbuzarliklar holatlarini tahlil qilish;

madaniy boyliklarning noqonuniy aylanishining obyektiv va subyektiv belgilariga oid jinoyat-huquqiy tahlilini ochib berish;

madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish;

madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishi bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishiga oid ma’muriy va jinoiy javobgarlikni belgilovchi normalarni takomillashtirish;

madaniy boyliklarni noqonuniy aylanish holatlariga qarshi kurashishda samarali usullarni aniqlash va sohada ko‘rsatilayotgan xizmatlarni raqamlashtirish.

Tadqiqot obyekti madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda javobgarlikni belgilash bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti madaniy boyliklar tushunchasi va unga oid javobgarlik turlari, madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishi bilan bog‘liq bojxona qonunchiligi buzilishi hamda uning noqonuniy aylanishini oldini olishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ularni qo‘llash amaliyoti tashkil etadi.

[4] Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati qismida keltirilgan.

Tadqiqotning usullari tadqiqot davomida analiz, sintez, deduksiya, induksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik ma’lumotlar tahlili, kuzatish, tizimli yondashuv va ijtimoiy so‘rovnoma usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

madaniy boyliklarni olib chiqish va vaqtincha olib chiqish huquqini beruvchi sertifikat hamda ular bo‘yicha beriladigan arizalarni zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi orqali olish imkonini yaratish zaruriyati asoslantirilgan;

madaniy boyliklarni muzey va kutubxonalardan o‘g‘irlash va talon-toroj qilish yo‘li bilan sodir etilgan jinoyatlar uchun Jinoyat kodeksiga javobgarlikni belgilash zaruriyati asoslantirilgan;

O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar xalqlarining madaniy boyliklarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga qaytarmaslik orqali sodir etiladigan jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilash zaruriyati asoslantirilgan;

madaniy boyliklarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazish harakatlarini oldini olish bo‘yicha Jinoyat kodeksiga javobgarlikni belgilash zaruriyati asoslantirilgan;

kam ahamiyatli madaniy boyliklarni noqonuniy bojxona chegarasidan olib o‘tish uchun ma’muriy javobgarlik belgilash zaruriyati asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

madaniy boyliklarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish choralarini takomillashtirish bo‘yicha tahliliy ma’lumotnomalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda asos bo‘lib xizmat qilgan;

respublika hududidan vaqtincha olib chiqilgan madaniy boyliklarni qaytarmaslik holatlari ustidan nazorat mexanizmi mavjud emasligi va qalbaki nusxalarini kirib kelishi holatlarini ortishi asoslangan;

madaniy boyliklarni muhofazasini ta’minlashda hamkorlikda ishlar olib borilishi soha yo‘nalishida samarali ekanligi tavsiya etilgan;

madaniy, tarixiy, arxeologik qimmatga ega bo‘lgan ashyolar va kolleksiyalarni qalbakilashtirish orqali talon-toroj qilish hamda noqonuniy egallash bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlari aniqlangan;

madaniy boyliklarni vaqtincha olib chiqish va olib chiqish huquqini beruvchi sertifikat va ular bo‘yicha beriladigan arizalarni zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda olish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, amalga oshirilgan uslubiy yondashuv va usullarning umum tan olinganligi va maqsadga muvofiqligi, normativ-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma’lumotlari rasmiyligi, xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan ayrim davlatlar tajribasi, qonunni qo‘llash amaliyoti va sohaviy mutaxassislar bilan o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlar (jami 314 nafar bojxona organlari va Madaniy meros agentligi xodimlari o‘rtasida ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazilgan) hamda statistik ma’lumotlar tahliliga asoslangan. Tadqiqot natijalari sinovdan o‘tkazilgan hamda yetakchi milliy nashrlar va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar to‘plamlarida chop etilgan. Ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish orqali, ushbu yo‘nalishda huquqiy sohada yuzaga kelayotgan bo‘shliqlarni to‘ldirish va O‘zbekiston Respublikasida madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazishda, tegishli qonunchilikni sharhlashda bojxona xodimlari nimalarga e’tibor berishi yoritib berilgan. Bundan tashqari, tadqiqot madaniy boyliklarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish sohasidagi milliy va xalqaro qonunchilikni ilmiy tahlil qilish orqali huquqshunoslik nazariyasini boyitadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati madaniy boyliklarni noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalarda ifodasini topgan. Ilmiy natijalardan sohaga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda hamda oliy o‘quv yurtlarida sohaga oid fanlari o‘quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qonunchilikda madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

madaniy boyliklarni olib chiqish va vaqtincha olib chiqish huquqini beruvchi sertifikat hamda ular bo‘yicha beriladigan arizalarni zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi orqali olish imkonini yaratish taklifidan Bojxona qo‘mitasining 2025-yil 2-apreldagi 68-son buyrug‘i asosida tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasining 11-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining 2025-yil 30-dekabrdagi №30/22-25-0077-sonli ma’lumotnomasi va 2902ix-sonli dalolatnomasi). Natijada madaniy boyliklarni O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi va vaqtincha olib chiqish huquqini beruvchi sertifikat olish jarayoni onlayn ariza yuborish orqali tatbiq etilishi asosida fuqarolarning ortiqcha vaqt va xarajatlarning kamayishiga erishilgan;

madaniy boyliklarni muzey va kutubxonalardan o‘g‘irlash va talon-toroj qilish yo‘li bilan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilash to‘g‘risidagi taklifdan Jinoyat kodeksi 169^1-moddasining loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 17-fevraldagi №3/dn-28-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi muzey va kutubxonalardan mansabdor shaxslar va boshqalar tomonidan noyob va bebaho hamda davlat reestriga kiritilgan madaniy boyliklarni o‘g‘irlanishi va talon-toroj qilitnishini oldini olishga xizmat qiladi;

O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar xalqlarining madaniy boyliklarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga qaytarmaslik orqali sodir etiladigan jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilash zarurligi haqidagi taklifidan Jinoyat kodeksi 169^2-moddasining loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 17-fevraldagi №3/dn-28-sonli dalolatnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2026-yil 23-yanvardagi

dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiq etilishi mamlakatimizdan olib chiqib ketilgan madaniy boyliklarning qaytarmaslik holatlarining oldini olishga xizmat qiladi;

madaniy boyliklarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazish harakatlarini oldini olish bo‘yicha taklifdan Jinoyat kodeksi 182^{1}-moddasi loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 17-fevraldagi №3/dn-28-sonli dalolatnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2026-yil 23-yanvardagi dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi madaniy boyliklarning noqonuniy olib o‘tilishini bartaraf etib, madaniy boyliklarning saqlab qolinishiga xizmat qiladi;

kam ahamiyatli madaniy boyliklarni noqonuniy bojxona chegarasidan olib o‘tish uchun ma’muriy javobgarlik belgilash zaruriyati to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga 227^{28}-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 17-fevraldagi №3/dn-28-sonli dalolatnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2026-yil 23-yanvardagi dalolatnomasi). Mazkur taklifning tatbiq etilishi bojxona chegarasi orqali kam ahamiyatli bo‘lgan madaniy boyliklarni olib o‘tish holatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoiy javobgarlikka tortilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta (3 ta xalqaro, 5 ta respublika) ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot davomida olingan ilmiy xulosalar, takliflar va ilmiy-amaliy tavsiyalar **jami 18 ta ilmiy ish**, jumladan 1 ta monografiya, 9 ta ilmiy maqola (4 tasi xorijiy nashrlarda) va 8 ta milliy va xalqaro konferensiyalarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, sakkizta paragrafdan iborat uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishini oldini olish bo‘yicha javobgarlikning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlanib, unda

madaniy boyliklarning kelib chiqish tarixi, tushunchasi, madaniy boyliklar bilan bog‘liq jinoyatchilikning ijtimoiy xavfliligi va uning uchun javobgarlik belgilashning ijtimoiy zarurati kabi masalalar tahlil qilingan.

Tadqiqotchi madaniy boyliklar tushunchasini ochib berish uchun F.F.Abduqodirov, T.X.Xasanov, H.M.Mo‘minov, I. Shixata, R. Klitgaardning tadqiqotlarini o‘rganib, ularni tahlil qilgan va ular bilan munozaraga kirishgan.

Milliy va xorijiy olimlarning fikrlari tahlil qilinib, madaniy boyliklar, jumladan, tarixiy yodgorliklar, arxeologik topilmalar va muzey ashyolarini qamrab oluvchi yagona milliy raqamli baza tashkil etish zarurati ochib berilgan.

Muallif tomonidan madaniy meros ashyolari hamda obyektlariga nisbatan hurmatsizlik bilan munosabatda bo‘lish va ularga shikast yetkazish holatlarini misollarda keltirib, bu kabi huquqbuzarliklarni oldini olish yuzasidan qonunchilikda alohida normalar bilan belgilanishi kerakligi asoslantirib berilgan.

Ishda Xalqaro Konvensiyalarni o‘rganilganligi va YUNESKOning 1970-yilgi “Madaniy boyliklarning noqonuniy olib kirilishi, chiqarilishi va ularga egalik qilishning taqiqlanishi hamda oldini olish choralari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi talablarini bajarish madaniy boyliklarni saqlab qolinishida va alohida javobgarlikni belgilash samara berishi to‘g‘risida xulosalar chiqarilgan.

Muallif, madaniy boyliklarning olib chiqilishi yoki vaqtincha olib chiqilishi bilan bog‘liq tartib qoidalar belgilanmaganligi va ular bo‘yicha biron-bir ro‘yhatni yuritilmasligi, Madaniy meros agentligining ma’lumotiga ko‘ra 2023-yil 387 dona, 2024-yil 447 dona madaniy boyliklar vaqtincha olib chiqilgan. Ularni qaytarilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud emas. Bu esa vaqtincha olib chiqilgan madaniy boyliklarni qaytarmaslik yoki qalbakilashtirish holatlarini keltirib chiqarayotganligini oldini olish yuzasidan huquqiy mexanizmi mustahkamldash va nazorat organlari faoliyatini tashkil etish zarurati ochib berilgan.

Madaniy boyliklarning noqonuniy aylanishi nafaqat ijtimoiy, balki korrupsiyaga yo‘l qo‘yish orqali mansabdor shaxslar noqonuniy arxeologik qazilmalarga ruxsat berishi, madaniy boyliklarni sotish bo‘yicha soxta hujjatlarni rasmiylashtirishi yoki ularning o‘g‘irlanishiga yo‘l qo‘yib berilishi, ularni muhofaza qilish uchun qonunchilikni kuchaytirish va jamoatchilikning mas’uliyatini oshirish lozimligini xorijlik olimlar (E.Rikardo, F.Tompson, E.Kanliff) fikrlari asosida isbotlab berilgan.

Madaniy boyliklar uchun QR-kodli hujjatlar tayyorlanib, blokcheyn texnologiyalari orqali ularning aslligi kafolatlash mumkinligi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning imkoniyatlarini oshirishga va tezkor qaror qabul qilish imkoniyatini yaratishi asoslantirib berilgan.

Dissertant fikricha, madaniy boyliklarni noqonuniy aylanmasi uchun milliy qonunchilikda yetarli darajada jazolar mustahkamlanmagan. O‘rganishlar davomida ma’muriy va jinoiy jazolarni qayta ko‘rib chiqish va quyidagi choralarni milliy qonunchilikka joriy etish taklifini ilgari suradi. Bunda madaniy boyliklarning noqonuniy aylanmasiga aloqador shaxslarga nisbatan og‘ir jazo choralarini qo‘llash, jumladan, uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish va yirik miqdorda jarima belgilanishi kerakligi haqida xulosaga keladi.

Qonunbuzarlar mol-mulkini musodara qilish: noqonuniy faoliyat natijasida orttirilgan mol-mulkni musodara qilish tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Madaniy boyliklarni muhofaza qilishda hududiy darajadagi nazorat mexanizmlari ham muhim oʻrin tutadi. Bu borada, madaniy obyektlarning holatini monitoring qilish, madaniy yodgorliklar va muzeylardagi ashyolarning holatini muntazam tekshirish, ularning qonunchilik talablariga muvofiq saqlanishini nazorat qilish boʻyicha samarali tizimni joriy etish zarur.

Shuningdek, bir qator olimlar tomonidan madaniy boyliklar tushunchasiga ilmiy yondashuvlar mavjud. Jumladan, M.Ilyinskiy tadqiqotlarida madaniy boyliklar - Italiyada har yili 10 mingga yaqin rasmlar, haykallar, arxeologik qadriyatlar oʻgʻirlanishi sodir boʻlishi hamda noqonuniy olib chiqqanlik va qonunchilik talablarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilovchi qonunlarning qabul qilinishini kerakligini ta'kidlagan. Shu kabi, S.V.Ivansov, L.R.Klebanov, M.Salvador, A.I.Xodanov, E.M.Kosisina, R.Elia, E.Kanliff olimlar ham oʻz qarashlarini ilmiy asarlarida koʻrsatib oʻtgan.

Biroq, ushbu olimlar tadqiqotlarida "Madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqib ketish" tushunchasiga alohida ta'rif keltirilmagan. Biz dissertatsiya tadqiqoti davomida madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqib ketish bilan bogʻliq jinoyatlarni tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va tergov qilish jarayonida gumonlanuvchilarning harakatlariga huquqiy baho berilishini inobatga olib, *"Madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqib ketish"* tushunchasiga mualliflik ta'rifini ilgari surdik. Unga koʻra "Madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqib ketish - madaniy boyliklarni Oʻzbekiston Respublikasi hududidan qonunchilikda belgilangan ruxsatnomasiz (sertifikatsiz) yoki uning shartlarini buzgan holda, shu jumladan bojxona nazoratini chetlab, undan yashirib, soxta hujjatlardan foydalanib yoxud deklaratsiyasiz bojxona chegarasidan oʻtkazish, shuningdek vaqtincha olib chiqilgan madaniy boyliklarni belgilangan muddatda qaytarmaslik orqali ularni Oʻzbekiston Respublikasining madaniy merosi tarkibidan qonunga xilof ravishda chiqarishga qaratilgan qasddan sodir etiladigan qilmishdir" deb ta'rif berishimiz maqsadga muvofiq.

Tadqiqot ishida bojxona organlari tomonidan 2023-yilda 220 ta holatda 1 047,7 mln. soʻmlik 1 669 dona, 2024-yilda 199 ta holatda 1 989,1 mln. soʻmlik 3738 dona, 2025-yilda 193 ta holatda 1 940,2 mln. soʻmlik 6181 dona va 2026-yilning 6 oyi mobaynida 149 ta holatda 1 470,3 mln. soʻmlik 2353 dona madaniy boyliklarni bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib oʻtish bilan bogʻliq huquqbuzarlik holatlari aniqlangan. Mazkur aniqlangan holatlar yuzasidan, 2023-yilda 219 ta, 2024-yilda 194 ta, 2025-yilda 190 ta va 2026-yilning 5 oyi mobaynida 118 ta ma'muriy ishlar hamda 2023-yilda 1 ta, 2024-yilda 3 ta, 2025-yilda 3 ta va 2026-yilning 6 oyi mobaynida 1 ta holatda jinoyat ishlari qoʻzgʻatilganligi holatlari tahlil qilingan.

Qiyosiy tahlil asosida muallif tomonidan bir qator mexanizmlarni milliy qonunchilikka kiritish zarurligi asoslangan:

a) Xitoy davlati tajribasi asosida MJtKning 64^1-moddasiga, Moddiy madaniy meros ashyolari hamda obyektlariga nisbatan hurmatsizlik bilan munosabatda bo‘lish, deb o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

b) Xitoy davlati tajribasi asosida JKning 132-moddasiga Moddiy madaniy meros ashyolari hamda obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish, deb o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

v) Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi masalalarini tartibga solish to‘g‘risida”gi qarori asosida tasdiqlangan Nizomning 26, 28-29-bandlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

26. Vaqtincha olib chiqilgan madaniy boyliklar Madaniy meros agentligi tomonidan belgilab berilgan muddatlarda qaytarib olib kelinmasligi holatlari bo‘yicha, belgilangan muddatlarga amal qilmagan yuridik hamda jismoniy shaxslar va ularga tegishli bo‘lgan madaniy boyliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni chora ko‘rishlik uchun *(tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda)* bojxona organlariga taqdim etilishi ta’minlansin.

28.Vaqtincha olib chiqishga va vaqtincha olib kirishga ruxsat berilgan madaniy boyliklar bojxona chegarasi orqali olib o‘tilishida bojxona xodimlari bilan birgalikda mutaxasis sifatida Madaniy meros agentligi mutaxasislari ishtiroki ta’minlanib, olib o‘tiladigan madaniy boyliklar ro‘yxatini *(reestrini)* elektron yuritish tartibi yo‘lga qo‘yilsin va ro‘yxatni elektron yuritish shakli ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

29. Madaniy meros agentligi mutaxassislari tomonidan vaqtincha olib chiqilgan yoki vaqtincha olib kirilgan madaniy boyliklar bo‘yicha elektron ma’lumotlar ro‘yxati *(reestri bo‘yicha)* har oy yakunida ma’lumotlar bojxona organlariga taqdim etilsin.

Dissertatsiyaning **“Madaniy boyliklarning noqonuniy aylanishiga oid jinoyat-huquqiy tahlil”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida madaniy boyliklarning noqonuniy aylanishining obyektiv va subyektiv belgilariga oid jinoyat-huquqiy tahlili amalga oshirilgan.

Tadqiqotchi O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida madaniy boyliklarning qonunga xilof muomalasiga oid javobgarlik belgilangan, umumiy va maxsus normalarning obyekti va obyektiv tomonlarini tahlil qilib, hozirda madaniy boyliklarning qonunga xilof muomalasi uchun umumiy yoki ayrim maxsus normalarda ayrim ijtimoiy munosabatlar jinoyat-huquqiy muhofazaga olinganligi, biroq ayrim ijtimoiy munosabatlar jinoyat-huquqiy muhofazadan chetda qolganligini ta’kidlagan.

Dissertant O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi 269-II-son qonuniga muvofiq madaniy meros obyektlari O‘zbekiston xalqining umumxalq boyligi hisoblanishi, mazkur toifadagi predmetlarni talon-toroj qilinishi birgina mulkdorga emas balki, butun xalqning madaniy boyligiga zarar yetkazishi shu bois, predmeti moddiy madaniy meros obyektlari bo‘lgan jinoyatlarni “O‘zgalar mulkini talon toroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlar” bilan kvalifikatsiya qilish Jinoyat kodeksining tuzilishiga mos emasligini, hozirda madaniy boyliklarni o‘zlashtirish yoki rastrata

qilish, firibgarlik, o‘g‘rilik usullari bilan qonunga xilof egallash keskin ko‘payganligini, madaniy boyliklarni qonunga xilof egallash mulkka talon-toroj qilishga nisbatan og‘irroq javobgarlik belgilanishi lozimligini, shu munosabat bilan mazkur ijtimoiy munosabatga qilingan tajovuz alohida norma bilan muhofaza qilinishi lozimligini ilgari surgan.

Tadqiqotchi T.X.Xasanov alohida qiymatga ega predmetlarni qonunga xilof ravishda egallash uchun alohida normada javobgarlik belgilashni taklif etib, uning obyektini o‘zgalar mulkini muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar deb hisoblagan bo‘lsa, F.F.Abduqodirov tarixiy, ilmiy, badiiy yoki boshqa madaniy qimmatga ega bo‘lgan yodgorliklar yoki hujjatlarni qonunga xilof ravishda egallash uchun javobgarlik belgilovchi normani oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar bobiga kiritish ya’ni axloqqa qarshi jinoyat sifatida baholashni taklif etishganliklari, bu borada Jinoyat kodeksida madaniy boyliklarning muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi bob mavjud bo‘lmaganligi sababli, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar nomli bo‘lib tarkibida qoldirish maqsadga muvofiqligini ilgari surgan.

Ishda O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar xalqlarining badiiy, tarixiy va arxeologik boyliklari hisoblangan ashyolarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga qaytarmaslikning bevosita obyekti - O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar xalqlarining madaniy boyliklari hisoblangan ashyolarni mamlakat hududidan vaqtincha olib chiqib ketilgan taqdirda, ularni O‘zbekiston Respublikasi hududiga o‘z vaqtida qaytarishning qonunchilikda belgilangan tartibi hisoblanishi, O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar xalqlarining badiiy, tarixiy va arxeologik boyliklari hisoblangan ashyolar ushbu ijtimoiy xavfli qilmishning predmeti deb tan olinishi, mazkur ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazuvchi yoki zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaruvchi ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun jinoyat qonunida alohida normada javobgarlik belgilash lozimligi ta’kidlangan.

Tadqiqotchi, hozirda madaniy boyliklarni talon-toroj qilish uchun jinoiy javobgarlik Jinoyat kodeksining O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish nomli X bobiga ko‘ra hal qilinadi. Unga ko‘ra madaniy boyliklar bosqinchilik, talonchilik, tovlamachilik, o‘g‘rilik orqali talon-toroj qilinsa, jinoiy javobgarlik 14 yoshdan, o‘zlashtirish yoki rastrata qilish, firibgarlik yo‘li bilan talon-toroj qilinsa 16 yoshdan, mansab mavqeini suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zlashtirish yoki rastrata qilish yo‘li bilan talon-toroj qilganlik, xizmat mavqeidan foydalanib sodir etilgan firibgarlik uchun javobgarlik esa 18 yoshdan yoki jinoyat subyekti biror-bir mansab mavqeiga yohud xizmat mavqeiga ega bo‘lganidan vujudga kelishini ta’kidlagan.

Ishda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida o‘zganing mulkini qasddan nobud qilish (JK 173-modda) uchun va “Moddiy madaniy meros obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish (JK 132-modda)” javobgarlik belgilanganligi, ushbu jinoyatlar o‘zaro predmetiga ko‘ra farqlanishi, JK 17-moddasida 173-modda ikkinchi, uchinchi qismlari uchun javobgarlik 14 yoshdan belgilangan bo‘lsa, 132-modda ikkinchi va uchinchi qismlari uchun javobgarlik 16 yoshdan etib belgilab, o‘xshash tarkibli jinoyatlar uchun

javobgarlikka tortish yoshini belgilashda qonun chiqaruvchi ikki xil yondashuv mavjudligini, JK 132-moddasi 2,3-qismlari uchun jinoiy javobgarlik yoshini 14 yoshdan etib belgilash jinoyat qonuni konstruksiyasini yaxshilanishiga va normalar raqobatida qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilinishiga xizmat qilishi asoslangan.

Dissertatsiyada O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 132-moddasiga ko‘ra, aybning shaklidan qat’i nazar jinoiy javobgarlik kelib chiqadi hamda ehtiyotsizlik orqasidan sodir etilgan tarix va madaniyat yodgorliklarini yo‘q qilish yoki shikastlantirish harakatlari ushbu moddada ko‘rsatilgan qadriyatlarni qasddan yo‘q qilish harakatlari bilan bir xil jazoga olib keladi. Muallifning fikricha, Jinoyat kodeksiga madaniy boyliklarni ehtiyotsizlik orqasidan yo‘q qilganlik yoki shikastlaganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi “Madaniy boyliklarni ehtiyotsizlik orqasidan yo‘q qilish yoki ularga shikast yetkazish” nomli 132^{1}-modda bilan to‘ldirish lozimligi asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Madaniy boyliklarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda javobgarlikni takomillashtirish yo‘llari”** deb nomlanuvchi uchinchi bobida, bojxona chegarasi orqali olib chiqilgan madaniy boyliklarni qaytarishda jazo tayinlashda mavjud muammolar, madaniy boyliklarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasida javobgarlik masalalari va ular bo‘yicha tajribasi o‘rganilgan, shuningdek, madaniy boyliklarni qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o‘ṭkazish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarga jazo tayinlash amaliyotini takomillashtirish istiqbollari, ushbu qonunga xilof harakatlar uchun javobgarlikka oid jinoyat hamda ma’muriy qonunchilik normalarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan.

Tadqiqot ishida madaniy boyliklarni kontrabanda yo‘ḷi bilan olib chiqishni rejalashtirilganligi yuzasidan ma‘lumotlar kelib tushsa yoki madaniy boyliklarni talon-toroj qilish, o‘g‘irlash rejasi yuzasidan ishonchli axborot olinganda tezkor tadbir o‘tkazish orqali jinoiy guruhlar faoliyatiga qarshi kurashish zarurati asoslantirib berilgan.

Muallif madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risidagi Qonunining 7-moddasini birinchi va ikkinchi qismlarida sertifikat asosida va muallif o‘zi yaratgan, o‘z mulki bo‘lgan madaniy boyliklarni olib chiqishga haqli ekanligi, biroq Qonunning 8-moddasida ellik yil muqaddam va undan ham oldinroq yaratilgan madaniy boyliklar olib chiqilishi mumkin emasligi ko‘rsatilgan, mazkur muammoni yechimi sifatida Qonunning 8-moddasida belgilangan madaniy boyliklarga nisbatan qo‘llanilmasligi haqida xulosaga keladi.

So‘nggi yillarda madaniy boyliklarni noqonuniy aylanmasi uchun jazo choralarini qo‘llash bo‘yicha amaldagi qonunchilik, shu jumladan Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 227^{19}-moddasi bilan (2022-yil 87), (2023-yil 173), (2024-yil 151), (2025-yil 168) javobgarlik qo‘llanilib kelinmoqda, bu turdagi noqonuniy qilmishlarga samarali kurashish hamda huquqni qo‘llovchilar orasida qilmishga to‘g‘ri huquqiy baho berish imkonini yaratishda moddaning nomi va birinchi qismidagi “iqtisodiy siyosat choralari” degan so‘zlardan keyin **“taqiqlar”** degan so‘z bilan to‘ldirish maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Muallif, jismoniy shaxslar tomonidan sertifikat asosida vaqtincha olib chiqilgan madaniy boylikning taqdiri ya’ni, qaytarilganligi yoki umuman qaytarilmaganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud emasligini va ushbu madaniy boylikning qaytarmaslik holatlari Gruziya, Moldovada ularni noqonuniy bojxona chegarasidan olib o‘tish jinoyati sifatida baholanligi ushbu davlatlar jinoyat qonunchiligi tahlili asosida ochib berilgan.

Tadqiqot ishida 2023, 2024 va 2025-yillarda rasmiylashtirilgan madaniy boyliklarni O‘ẓbekiston Respublikasidan olib chiqish yoki vaqtincha olib chiqish huquqini beruvchi sertifikatlar to‘g‘risida ma’lumotlar tahlil qilinib, 2023-yilga nisbatan 15,5 foizga oshganligini, “madaniy boyliklarni O‘ẓbekiston Respublikasidan vaqtincha olib chiqish huquqini beruvchi” sertifikat bilan olib chiqib, oradan ma’lum bir muddat (3 oy yoki undan ham ko‘ṗroq bo‘ḷishi mumkin, chunki mazkur muddatni nazorat qilish mexanizmi biror bir normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab berilmagan) o‘ṭgach, qaytarish yuzasidan “Yagona darcha” axborot tizimiga nazorat funksiyasini kiritish zarurati asoslantirib berilgan.

Ishda madaniy boyliklarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasida javobgarlik masalalari va hozirda xorijiy davlatlarda saqlanayotgan yurtimizga tegishli bo‘lgan madaniy boyliklar hamda ularni qaytarishdagi muammolar ham o‘rganilgan. Madaniy meros agentligi tomonidan hozirgi kunga qadar dunyoning 40 ga yaqin mamlakatida saqlanayotgan O‘zbekiston tarixi va madaniyatiga oid 9000 dan ortiq uy-ro‘zg‘or ashyolari, arxeologik topilmalar, turli taqinchoqlar, qo‘lyozmalar, hujjatlar, to‘qimachilik ashyolari (palak (qo‘lda yoki mashinada kashta tikib tayyorlanadigan badiiy buyum), to‘n, atlas, beqasam va boshqa), musiqa asboblari kabi madaniy boyliklarga oid ma’lumotlar to‘plangan. Xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan mamlakat tarixi va madaniyatiga oid qo‘lyozmalarni aniqlash, o‘rganish va nusxalarini yurtimizga olib kelish yo‘nalishida 2022-yilda 330 ta madaniy ashyolar, shundan 173 ta qo‘lyozma va 157 ta muzey eksponatiga oid ma’lumotlar aniqlangan. Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishda qabul qilingan “Madaniy boyliklarning noqonuniy olib chiqilishi, olib kirilishi va egalik huquqini begonalashtirishni taqiqlashga va ogohlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” Konvensiyada o‘z madaniy boyliklarini noqonuniy olib chiqilishidan, olib kirilishidan va egalik huquqini begonalashtirishidan himoya qilish maqsadida ushbu Konvensiyaga a’zo davlatlarda madaniy meroslarini himoya qiluvchi zarur miqdorda, yuqori malakali xodimlar bilan ta’minlangan milliy xizmatlar hali tashkil etilmagan bo‘lsa, har biri o‘z hududlarida shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda, madaniy meroslarini himoya qiluvchi bitta yoki bir nechta milliy xizmatlar bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar ham belgilab qo‘yilgan.

Shunga ko‘ra muallif, madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqib ketilishiga qarshi kurashish borasida huquqni muhofaza qilish organlarining amaliy faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqqan;

O‘ẓbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi “Turizm politsiyasi”ni Italiya Respublikasi tajribasi asosida “Art-politsiya” ko‘ṛinishida qayta tashkil etish hamda ularga jamoat tartibotidan tashqari quyidagi vakolatlarni berish taklifi asoslantirib berilgan.

Muallif, Xalqaro tajribani oʻrganish jarayonida bir qator davlatlarda madaniy qimmatliklarning noqonuniy aylanmasining *(noqonuniy olib kirilishi va olib chiqilishi, oʻgʻirlab ketilishi)* oldini olishda, ushbu huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarga nisbatan maʼmuriy va jinoyat qonununchiligida alohida moddalar orqali javobgarlik masalalari belgilanganligini koʻrsatib oʻtgan.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Maʼmuriy huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi kodeksining 7.13-moddasida va Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 226.1-moddasida madaniy boyliklar yoxud qimmatbaho yovvoyi hayvonlar va suv biologik resurslari kontrabandasi madaniy boyliklarni noqonuniy ravishda bojxona chegarasidan oʻtkazish uchun jinoiy javobgarlik belgilanganligini, Gruziya davlati Jinoyat kodeksining 214-moddasi 3-qismida Gruziya davlati qonunida belgilangan madaniy meros obyektlarini yoki boshqa turdagi madaniy meros obyektlarini qoidalarni buzgan holda olib kirish yoki olib chiqish uchun jinoiy javobgarlik belgilanganligi, Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksining 248-moddasida madaniyat yodgorliklarini davlat chegarasidan gʻayriqonuniy ravishda oʻtkazilishi ham kontrabanda jinoyati tarkibini tashkil etishini, Xitoy davlati Jinoyat kodeksining 325-moddasida, madaniy qiymmatliklarni noqonuniy olib chiqishga uringan hamda madaniy yodgorliklarga ziyon yetkazgan shaxslarga nisbatan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qoʻllanilishi belgilanganligi, Polsha davlatida, ruxsatsiz yodgorlikni chet elga olib chiqish yoki uni qaytarib bermaslik ozodlikdan mahrum qilish va jarima bilan jazolanadi. Yodgorliklarni chet elga olib chiqish maqsadida sotish yoki sotishda vositachilik qilish ozodlikdan mahrum qilish va jarima bilan jazolanishi, Germaniya qonunchiligida madaniy boyliklarni xorijga olib chiqish uchun maxsus ruxsatnoma ham nazarda tutilgan. Bunday ruxsatnoma Madaniyat vazirligi yoki Oliy va oʻrta taʼlim vazirligi tomonidan beriladi yoki Germaniyadan madaniy boyliklarni olib chiqish milliy meros yoki fanga jiddiy zarar yetkazishi mumkin boʻlsa, umuman berilmasligi va himoyalangan narsalarni Germaniyadan ruxsatsiz chet elga olib chiqish ozodlikdan mahrum qilish va jarima yoki ushbu jazolardan birini qoʻllashi tahlillar asosida asoslab berilgan.

Xalqaro amaliyotda “kontrabanda” tushunchasi faqat predmetga nisbatan emas, balki, tovarlar yoki ashyolarni bojxona chegaralari orqali noqonuniy ravishda olib oʻtish usullariga nisbatan ishlatilishini inobatga olgan holda “madaniy boyliklar kontrabandasi” tushunchasiga mualliflik taʼrifini ilgari surilgan. Unga koʻra “madaniy boyliklar kontrabandasi” – madaniy boyliklarni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga oʻxshatib yasalgan hujjatlardan aldash yoʻli bilan foydalangan holda yoki ruxsatnomasiz bojxona chegarasidan olib oʻtish bilan bogʻliq qilmish” deb taʼrif berishimiz maqsadga muvofiqligi koʻrsatib oʻtgan.

Shuningdek, tarixiy, ilmiy, badiiy yoki boshqa madaniy qimmatga ega boʻlgan ashyo yoki hujjatlarni qonunga xilof ravishda egallash, jinoyat aksariyat hollarda oʻzlashtirish, rastrata qilish yoʻli bilan sodir etilayotganligini inobatga olib, mazkur turdagi jinoyatlar uchun Jinoyat kodeksiga “Madaniy boyliklarni qonunga xilof ravishda egallash” deb nomlanuvchi yangi normani kiritish zarurati asoslantirib berilgan.

Muallif tomonidan bugungi kunda amaliyotda ashyoviy dalil sifatida olinayotgan madaniy boyliklar tovar sifatida qaralayotganligi va madaniy boyliklarining qiymatidan kelib chiqib jinoiy javobgarlikka tortilayotganligi, bu esa oʻz navbatida madaniy boyliklar kontrabandasi bilan shugʻullanuvchi jinoiy guruhlarga juda ham qoʻl kelayotganligi jinoyat ishlari tahlil qilinib, misollar keltirib, bu kabi huquqbuzarliklarni oldini olish yuzasidan qonunchilikda alohida normalar bilan belgilanishi kerakligi asoslantirib berilgan.

Shuningdek, tovar-moddiy boyliklarini olib oʻtish huquqbuzarlik holatlaridan madaniy boyliklarni qonunga xilof ravishda oʻtkazish bilan bogʻliq jinoiy harakatlarni farqlash hamda huquqiy baho berishda "Madaniy boyliklarni qonunga xilof ravishda oʻtkazish" deb nomlanuvchi yangi normani Jinoyat kodeksiga kiritish orqali amaliyotda jazo tayinlash boʻyicha mavjud muammolarni bartaraf etishga erishiladi.

Taklif etilayotgan Jinoyat kodeksi 182^1-moddasi 1-qismi boʻyicha jinoiy javobgarlikni belgilashda, madaniy boyliklarni bojxona chegarasidan noqonuniy olib oʻtganlik uchun maʼmuriy jazo qoʻllanilganidan soʻng bir yil davomida sodir etgan holdagina kelib chiqishi belgilangan.

Ishda fuqarolar va xorijiy turistlarning madaniy boyliklarni olib oʻtish bilan bogʻliq kam ahamiyatli huquqbuzarliklar uchun toʻgʻridan-toʻgʻri jinoiy javobgarlikka tortilishini oldini olish maqsadida maʼmuriy javobgarlikka tortilishi hamda fuqarolar va xorijiy sayyohlar tomonidan madaniy boyliklarni olib chiqishlariga sertifikat olganligi holatlarida sodir etilgan huquqbuzarliklarga nisbatan musodara bilan bogʻliq boʻlmagan jazo chorasini qoʻllash haqida xulosaga keladi.

Muallif tomonidan madaniy boyliklarni bojxona chegarasidan noqonuniy olib oʻtganlik uchun maʼmuriy jazo qoʻllanilganidan soʻng bir yil davomida yana aynan shunday huquqbuzarlikni sodir etgan holdagina jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarishi va birinchi marta madaniy boyliklarni bojxona chegarasida noqonuniy olib oʻtish huquqbuzarligini sodir etgan shaxslarga nisbatan dastlab maʼmuriy javobgarlik belgilash maqsadida takliflar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, ushbu bobda dissertant tomonidan quyidagi qator huquqiy mexanizmlarni qonunchilikka kiritish orqali madaniy boyliklarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish faoliyati samaradorligi oshishi taʼkidlangan:

a) Gruziya tajribasi asosida JKga "Madaniy boyliklarni qonunga xilof ravishda egallash" deb nomlanuvchi 169^1-moddani kiritish;

b) Polsha davlati tajribasi asosida JKga Oʻzbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar xalqlarining madaniy boyliklarini Oʻzbekiston Respublikasi hududiga qaytarmaslik deb nomlanuvchi 169^2-moddani kiritish;

v) Rossiya, Ozarbayjon, Moldova tajribasi asosida JKga Madaniy boyliklarni Oʻzbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda oʻtkazish deb nomlanuvchi 182^1-moddani kiritish;

g) Rossiya tajribasi asosida Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksini quyidagi mazmundagi Madaniy boyliklarni Oʻzbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda oʻtkazish deb nomlanuvchi 227^{28}-moddani kiritish;

d) “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida” Qonunining 7-moddasini quyidagi tahrirdagi uchinchi qism bilan to‘ldirish:

- “Madaniy boyliklarning olib chiqilishiga oid mazkur moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida keltirilgan qoidalar ushbu Qonunning 8-moddasida belgilangan madaniy boyliklarga nisbatan qo‘llanilmaydi.”

y) Qonunning 12-moddasini quyidagi tahrirdagi yettinchi xatboshisi bilan to‘ldirish:

- “vaqtincha olib chiqiladi deb e’lon qilingan madaniy boyliklar ushbu Qonunning 8-moddasida keltirilgan madaniy boyliklar hisoblansa;”

yo) O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 227^{19}-moddasi nomi va birinchi qismidagi “iqtisodiy siyosat choralari” degan so‘zlardan keyin **“taqiqlar”** degan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish.

XULOSA

Madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda javobgarlikni takomillashtirish masalalarini tadqiq qilish natijasida quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga molik xulosalar shakllantirildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosa va takliflar:

1. Tadqiqot natijasida madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda javobgarlikni takomillashtirishning alohida xususiyatlari yoritildi hamda madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishni amalga oshirish usullari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Ushbu natijalar madaniy boyliklarni qonunga xilof ravishda egallash, talon-toroj qilish, holatlarini oldini olish imkonini berdi.

2. Madaniy boyliklar faoliyatiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarda “Madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqib ketish” va “Madaniy boyliklar kontrabandasi” tushunchalari va tarkibi tadqiqot natijasida alohida yoritib berildi. Natijada “Madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqib ketish” va “Madaniy boyliklar kontrabandasi” tushunchalari xalqaro standartlar asosida milliy qonunchilikda implementatsiya qilinishiga xizmat qiladi.

3. Madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqib ketish - madaniy boyliklarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan qonunchilikda belgilangan ruxsatnomasiz (sertifikatsiz) yoki uning shartlarini buzgan holda, shu jumladan bojxona nazoratini chetlab, undan yashirib, soxta hujjatlardan foydalanib yoxud deklaratsiyasiz bojxona chegarasidan o‘tkazish, shuningdek vaqtincha olib chiqilgan madaniy boyliklarni belgilangan muddatda qaytarmaslik orqali ularni O‘zbekiston Respublikasining madaniy merosi tarkibidan qonunga xilof ravishda chiqarishga qaratilgan qasddan sodir etiladigan qilmish deb ifodalangan mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi.

4. Madaniy boyliklar kontrabandasi - madaniy boyliklarni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalangan holda

yoki ruxsatnomasiz bojxona chegarasidan olib o‘tish bilan bog‘liq qilmish deb ifodalangan mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi.

5. Davlat muzeyi va qo‘ṛiqxonalarida hamda kutubxonalarda qadimiy qo‘ḷyozmalar, tarixiy buyumlarni va boshqa madaniy boyliklar bo‘yicha davlat tomonidan muhofaza ro‘yxatlari va reestrlari yuritilishini hamda hozirgi kunga qadar davlat tomonidan muhofaza ro‘yxatlari va reestrlariga kiritilmagan bebaho va noyob madaniy boyliklarimiz ham mavjudligini, Qonun loyihasida madaniy boyliklarni qonunga xilof ravishda egallash deb nomlanuvchi moddasi bilan to‘ḷdirilishi va mazkur moddaning uchinchi qismida, madaniy boyliklarni davlat tomonidan muhofaza ro‘yxatlari va reestrlariga kiritilgan, bebaho yoki noyoblarini noqonuniy egallash bilan bog‘liq holatlarda jinoiy javobgarlikni belgilab beruvchi bandlar bilan to‘ḷdirilishi hamda moddaning to‘ṛtinchi qismida, shaxs o‘ẓ ixtiyori bilan aybini bo‘yniga olib, jinoyatdan ixtiyoriy qaydsa engillashtiruvchi holat deb boholanadi.

6. Bizning fikrimizcha, o‘ṭkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘ṛsatdiki, chegara bojxona postlari orqali olib o‘ṭilgan O‘ẓbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar xalqlarining madaniy boyliklarini O‘ẓbekiston Respublikasi hududiga qaytarmaslik orqali sodir etiladigan jinoyatlar uchun alohida normaning mavjud emasligi va javobgarlikni belgilash zarurligi asoslab berilgan. Natijada olib chiqilgan madaniy boyliklarni yurtimiz hududiga qaytarmaslikning oldini olish imkoniyati yaratiladi.

7. Tovar-moddiy boyliklarini olib o‘ṭish huquqbuzarlik holatlaridan madaniy boyliklarni qonunga xilof ravishda o‘ṭkazish bilan bog‘liq jinoiy harakatlarni farqlashda hamda huquqiy baho berishda madaniy boyliklarni qonunga xilof ravishda o‘ṭkazish deb nomlanuvchi yangi normani kiritish orqali amaliyotda mavjud muammolar bartaraf etishga erishiladi.

8. Fuqarolar va xorijiy turistlarning madaniy boyliklarni olib o‘ṭish huquqlarini ta’minlashda va madaniy boyliklar bilan bog‘liq huquqbuzarlik holatlarini to‘g‘ri kvalifikatsiya qilinishida hamda kam ahamiyatli madaniy boyliklarni birinchi marta bojxona chegarasidan hech qanday ruxsatlarsiz olib chiqilishi bilan bog‘liq huquqbuzarlikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri og‘ir jinoyatlar toifasiga kiritilishini oldini olish orqali adolatli jazo qo‘ḷlanilishiga asosiy omil bo‘ḷib xizmat qiladi.

9. Har bir madaniy obyekt uchun QR-kodli hujjatlar tayyorlanib, blokcheyn texnologiyalari orqali ularning aslligi kafolatlanishi va madaniy boyliklar kontrabandasi va madaniy boyliklarni qalbakilashtirish oldi olinadi. Shuningdek, yo‘qolgan madaniy boyliklar reyestrini yuritish imkoniyati yaratiladi. Natijada huquqni muhofaza qilish organlarining nazorat qilish tizimi osonlashishiga erishiladi.

10. Jahon bojxona tashkiloti va yetakchi tashkilotlar tavsiyalari o‘ṛganilgan. Xalqaro tajribalarning ijobiy jihatlarini qo‘ḷlash yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan hamda ularni amaliyotga samarali usullari joriy etish asosida madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqib ketilishini oldini olishga erishiladi.

11. Mazkur takliflar ilmiy-tadqiqot ishining muhimligi va tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilab berish bilan birga, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy obroʻ-eʼtiborini oshirishga hamda mazkur yoʻnalishda huquqbuzarliklarni oldini olish va ularga qarshi kurashishning xalqaro normalari va standartlarining milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishiga xizmat qiladi.

II. Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish boʻyicha takliflar:

12. Madaniy boyliklarni Oʻzbekiston Respublikasidan olib chiqilishi va vaqtincha olib chiqish huquqini beruvchi sertifikat olish jarayoni onlayn ariza yuborish orqali tatbiq etilishi asosida fuqarolarning ortiqcha vaqt va xarajatlarini kamayishiga erish maqsadida vaqtincha olib chiqish va olib chiqish huquqini beruvchi sertifikat va ular boʻyicha beriladigan arizalarni **“Yagona darcha” bojxona axborot tizimi** orqali olish imkonini yaratish taklif berildi.

13. Madaniy boyliklarni Oʻzbekiston Respublikasidan vaqtincha olib chiqish huquqini beruvchi sertifikat bilan olib chiqib, oradan maʼlum bir muddat (3 oy, mazkur muddatni nazorat qilish mexanizmi biror bir normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab berilmagan) oʻtgach, qaytarish yuzasidan “Yagona darcha” axborot tizimiga nazorat funksiyasini kiritish.

14. Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini quyidagi mazmundagi **169^1 - moddasi** bilan toʻldirish taklifi asoslab berilgan:

“169^1- modda. Madaniy boyliklarni qonunga xilof ravishda egallash

Madaniy boyliklarni oʻgʻirlik yoki firibgarlik yoʻli bilan egallash - besh yildan oʻn yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Oʻsha harakat:

a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan;

v) oʻzlashtirish, rastrata qilish yoxud mansab mavqeyini suiisteʼmol qilish yoʻli bilan;

g) talonchilik yoʻli bilan;

d) tovlamachilik yoʻli bilan sodir etilgan boʻlsa, - oʻn yildan oʻn besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Oʻsha harakat:

a) davlat tomonidan muhofaza roʻyxatlari va reyestrlariga kiritilgan madaniy boyliklarga nisbatan sodir etilgan boʻlsa;

b) bebaho yoki noyob madaniy boyliklarga nisbatan sodir etilgan boʻlsa;

v) bosqinchilik yoʻli bilan;

g) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini koʻzlab sodir etilgan boʻlsa;

d) ogʻir oqibatlarga olib kelgan boʻlsa, -

oʻn besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan qilmishlarni sodir etgan shaxs oʻz ixtiyori bilan aybini boʻyniga olish

to‘g‘risida hokimiyat organlariga arz qilsa va madaniy boyliklarni topshirsa, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘ḷlanilmaydi”.

15. O‘ẓbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga yangi 169^2- modda bilan to‘ḷdirish taklif etilgan:

“**169^2 - modda. O‘ẓbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar xalqlarining madaniy boyliklarini O‘ẓbekiston Respublikasi hududiga qaytarmaslik**

O‘ẓbekiston Respublikasi hududidan olib chiqib ketilgan O‘ẓbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar xalqlarining madaniy boyliklarini belgilangan muddatlarda O‘ẓbekiston Respublikasi hududiga qaytarmaslik, agar bunday qaytarish O‘ẓbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan majburiy hisoblansa, - uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘ṣha harakat:

a) davlat tomonidan muhofaza ro‘yxatlari va reyestrlariga kiritilgan madaniy boyliklarga nisbatan;

b) bebaho yoki noyob madaniy boyliklarga nisbatan;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

g) olib chiqilgan madaniy boyliklarning qalbakilashtirilgan nusxalarini olib kirish yo‘ḷi bilan sodir etilgan bo‘ḷsa, -

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan qilmishlarni sodir etgan shaxs o‘ẓ ixtiyori bilan aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida hokimiyat organlariga arz qilsa va ilgari olib chiqilgan madaniy boyliklarni o‘ẓ ixtiyori bilan topshirsa, javobgarlikdan ozod qilinadi”.

16. O‘ẓbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 182^1- modda bilan to‘ḷdirish taklifi ilgari surilgan.

“**182^1- modda. Madaniy boyliklarni O‘ẓbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘ṭkazish**

Bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘ẋshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘ḷi bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, madaniy boyliklarni O‘ẓbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘ṭkazish, shunday harakat uchun ma’muriy jazo qo‘ḷlanilganidan keyin sodir etilgan bo‘ḷsa, -

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘ṣha harakatlar:

a) ko‘p miqdorda;

b) davlat tomonidan muhofaza ro‘yxatlari va reyestrlariga kiritilgan madaniy boyliklarga nisbatan;

v) bebaho yoki noyob madaniy boyliklarga nisbatan;

g) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

d) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan bo‘ḷsa, - besh yildan o‘ṇ yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Oʻsha harakatlar:

a) juda koʻp miqdorda;

b) chegarani buzib oʻtish, yaʻni bojxona xizmatining roziligini olmasdan turib, madaniy boyliklarni Oʻzbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan ochiqdan-ochiq oʻtkazish yoʻli bilan;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini koʻzlab;

g) xizmat lavozimidan foydalangan holda sodir etilgan boʻlsa, - oʻn yildan oʻn besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi".

17. Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksini quyidagi mazmundagi **227^{28}-modda** bilan toʻldirish taklifi asoslab berilgan:

"227^{28}-modda. Madaniy boyliklarni Oʻzbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda oʻtkazish

Bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga oʻxshatib yasalgan hujjatlardan aldash yoʻli bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib madaniy boyliklarni Oʻzbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan oʻtkazish, -

Madaniy boyliklarni musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining oʻn baravaridan yigirma baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - oʻn besh baravaridan oʻttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

Oʻzbekiston Respublikasidan olib chiqilishi yoki vaqtincha olib chiqilishi (olib kirilishi) huquqini beruvchi sertifikat yoxud pasporti mavjud boʻlgan madaniy boyliklarni deklaratsiyasiz Oʻzbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan oʻtkazish bilan bogʻliq ravishda sodir etilgan boʻlsa,-

bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi".

18. Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksini quyidagi mazmundagi **64^{1}-moddasiga** oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish taklifi:

"64^{1}-modda. Moddiy madaniy meros <u>ashyolari hamda</u> obyektlariga nisbatan hurmatsizlik bilan munosabatda boʻlish.

Moddiy madaniy meros **<u>ashyolari hamda</u>** obyektlariga nisbatan hurmatsizlik bilan munosabatda boʻlish, yaʼni yozuvlar yozish, rasmlar chizish yoʻli bilan ularni tahqirlash yoki ularga shikast yetkazish, moddiy madaniy meros obyektlarini, shu jumladan ularning tarixiy, ilmiy, badiiy yoxud oʻzgacha madaniy qimmatiga dogʻ tushiruvchi yoki ularni masxara qiluvchi harakatlarni sodir etish, xuddi shuningdek moddiy madaniy meros obyektlariga nisbatan jamoat tartibini buzuvchi harakatlarni sodir etish,

- bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan oʻn baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan oz miqdorda zarar yetkazgan huquqbuzarlikni sodir etish,

- bazaviy hisoblash miqdorining oʻn baravaridan oʻn besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan, koʻp boʻlmagan miqdorda zarar yetkazgan huquqbuzarlikni sodir etish,

- bazaviy hisoblash miqdorining oʻn besh baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

Ushbu moddaning birinchi, ikkinchi yoki uchinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni maʼmuriy jazo chorasi qoʻllanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish,

- oʻn besh sutka muddatga maʼmuriy qamoqqa olishga yoki ushbu Kodeksga muvofiq oʻziga nisbatan maʼmuriy qamoqqa olish qoʻllanilishi mumkin boʻlmagan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan oʻttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

Oz miqdordagi zarar deganda bazaviy hisoblash miqdorining oʻttiz baravarigacha boʻlgan doiradagi, koʻp boʻlmagan miqdordagi zarar deganda bazaviy hisoblash miqdorining oʻttiz baravaridan yuz baravarigacha boʻlgan doiradagi miqdor tushuniladi.”

19. Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini quyidagi mazmundagi **132-moddasiga** oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish taklifi:

“**132-modda. Moddiy madaniy meros ashyolari hamda obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish**

Davlat muhofazasiga olingan moddiy madaniy meros **ashyolari hamda** obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish ancha miqdorda zarar yetkazilishiga sabab boʻlsa, -

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Oʻsha harakatlar:

a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

b) koʻp miqdorda zarar yetkazgan holda;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan boʻlsa, -

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Oʻsha harakatlar juda koʻp miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan boʻlsa, -

besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yetkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qoʻllanilmaydi.”

20. Vazirlar Mahkamasining “Oʻzbekiston Respublikasida madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi masalalarini tartibga solish toʻgʻrisida”gi qarori asosida tasdiqlangan Nizomning 26, 28-29 bandlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish;

26. Vaqtincha olib chiqilgan madaniy boyliklar Madaniy meros agentligi tomonidan belgilab berilgan muddatlarda qaytarib olib kelinmasligi holatlari boʻyicha, belgilangan muddatlarga amal qilmagan yuridik hamda jismoniy shaxslar va ularga tegishli boʻlgan madaniy boyliklar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni

chora koʻrishlik uchun *(tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda)* bojxona organlariga taqdim etilishi taʼminlansin.

28.Vaqtincha olib chiqishga va vaqtincha olib kirishga ruxsat berilgan madaniy boyliklar bojxona chegarasi orqali olib oʻtilishida bojxona xodimlari bilan birgalikda mutaxasis sifatida Madaniy meros agentligi mutaxasislari ishtiroki taʼminlanib, olib oʻtiladigan madaniy boyliklar roʻyxatini *(reestrini)* elektron yuritish tartibi yoʻlga qoʻyilsin va roʻyxatni elektron yuritish shakli ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

29. Madaniy meros agentligi mutaxassislari tomonidan vaqtincha olib chiqilgan yoki vaqtincha olib kirilgan madaniy boyliklar boʻyicha elektron maʼlumotlar roʻyxati *(reestri boʻyicha)* har oy yakunida maʼlumotlar bojxona organlariga taqdim etilsin.

21. “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi toʻgʻrisida” Qonunining 7-moddasini quyidagi tahrirdagi uchinchi qism bilan toʻldirish:

- “Madaniy boyliklarning olib chiqilishiga oid mazkur moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida keltirilgan qoidalar ushbu Qonunning 8-moddasida belgilangan madaniy boyliklarga nisbatan qoʻllanilmaydi.”

22. Qonunning 12-moddasini quyidagi tahrirdagi yettinchi xatboshisi bilan toʻldirish:

- “vaqtincha olib chiqiladi deb eʼlon qilingan madaniy boyliklar ushbu Qonunning 8-moddasida keltirilgan madaniy boyliklar hisoblansa.”

23. Oʻzbekiston Respublikasining Maʻmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksining 227^{19}-moddasi nomi va birinchi qismidagi “iqtisodiy siyosat choralari” degan soʻzlardan keyin **“taqiqlar”** degan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish.

III. Madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqib ketilishiga qarshi kurashish borasida huquqni muhofaza qilish organlarining amaliy faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan xulosa va takliflar:

24. Oʻzbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi “Turizm politsiyasi”ni Italiya Respublikasi tajribasi asosida “Art-politsiya” koʻrinishida qayta tashkil etish hamda ularga jamoat tartibotidan tashqari quyidagi vakolatlarni berish taklifi koʻrsatib oʻtilgan:

1. Madaniy boyliklar bilan bogʻliq jinoyatlar yuzasidan tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;

2. Madaniy boyliklar bilan bogʻliq jinoyatlarni tergovga qadar tekshiruvi va dastlabki tergovini amalga oshirish;

3. Madaniy boyliklar saqlanayotgan hududlarda nazorat-qoʻriqlash xizmatini tashkil qilish;

4. Madaniy boyliklarni xorijiy davlatlarda qidiruvini amalga oshiruvchi xodimlar bilan taʼminlash;

5. Italiya tajribasi asosida “Yoʻqolgan madaniy boyliklar reyestri”ni yuritishda iloji boricha maksimal maʼlumotlar kiritish va uning elektron shakldagi mobil ilovasini ishlab chiqish;

6. Fuqarolar tomonidan obyektlarni skaner qilish orqali madaniy boylikni tekshirish imkoniyatiga ega mobil ilovani amaliyotga joriy qilish;

7. Ilovadan foydalangan holda identifikatsiya qilingan yo‘ḳolgan yoxud yo‘ḳolgan deb hisoblangan madaniy boyliklar haqida vakolatli organlarga xabar qilish tizimini joriy qilish;

8. Jinoyat haqida xabar bergan shaxslarni belgilangan tartibda adolatli taqdirlash mexanizmini ishlab chiqish va tasdiqlash;

9. Madaniy boyliklarga tajovuz qilish bilan bog‘liq jinoyatlarni ochish va oldini olish bo‘yicha nazorat organlarining Madaniy tezkor bo‘ḷinmalari faoliyatini takomillashtirish;

10. Xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar ko‘magida HMQO va soha mutaxasislarini “Madaniy boyliklarning noqonuniy aylanuvini oldini olish” yo‘nalishida salohiyatini oshirish va bilim ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun o‘quv kurslarini tashkil etish;

- madaniy boyliklarning noqonuniy aylanishiga aloqador jinoiy guruhlarning mazkur jinoyatlarni sodir etish usullarini o‘rganish o‘quv kursi;

- madaniy boyliklarning noqonuniy savdosi bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish o‘quv kursi;

- madaniy boyliklarga tajovuz qilish bilan bog‘liq jinoyatlarni ochish va oldini olish bo‘yicha nazorat organlarining tezkor bo‘linmalari faoliyatini takomillashtirish o‘quv kursi;

- noqonuniy madaniy boyliklar yuzasidan badiiy, san’atshunoslik va baholash ekspertizasini o‘tkazish tartibi o‘quv kursi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.24/2026.31.01.Yu.01.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ АКАДЕМИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРАВООХРАНИТЕЛЬНАЯ АКАДЕМИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЭРГАШЕВ ЖАХОНГИР ШЕРАЛИЕВИЧ

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В БОРЬБЕ С НЕЗАКОННЫМ ОБОРОТОМ КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

«12.00.08 – Уголовное право. Уголовно-исполнительное право»

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по юридическим наукам

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по юридическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за номером B2026.2.PhD/Yu1342.

Диссертация выполнена в Правоохранительной академии Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации выполнен на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) и размещён на веб-сайте научного совета и образовательно-информационном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель	**Тохиров Фарход** доктор юридических наук, профессор
	Шайзаков Шодиёр Ибрагимович доктор философии (PhD) по юридическим наукам, доцент
Официальные оппоненты:	**Холикулов Умид Шодиевич** доктор юридических наук, профессор
	Розимова Кундуз Юлдашевна доктор юридических наук, профессор и.о.
Ведущая организация:	Академия Министерства внутренних дел Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится 24 ноября 2026 года в 16:00 часов на заседании Научного совета № DSc.24/2026.31.01.Yu.01.02 по присуждению ученых степеней при Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Адрес: 100047, г. Ташкент, Юнусабадский район, ул. Рихсилий, 9. Тел.: (+99871) 202-04-96; e-mail: info@proacademy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Правоохранительной академии Республики Узбекистан (зарегистрирована за № 104). (Адрес: 100047, г. Ташкент, Юнусабадский район, улица Рихсилий, 9. Тел.: (+99871) 202-04-96.

Автореферат диссертации разослан 12 ноября 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 23 от 12 ноября 2026 года).

Каримов В.
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

Хакимов К.Б.
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор юридических наук, профессор

Шодиев Г.М.
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире, наряду с контрабандой и незаконным оборотом наркотических средств, животных, оружия и радиоактивных веществ, серьезную обеспокоенность всех народов вызывает контрабанда культурных ценностей (произведений искусства, предметов старины и др.), то есть их незаконный оборот и подпольная торговля, осуществляемые организованными преступными группами, согласно данным Международной организации уголовной полиции – Интерпола, по состоянию на июль 2026 года в международный розыск по всему миру были объявлены 56 483 похищенных и разграбленных культурных ценности. По фактам, связанным с культурными ценностями, находящимися в международном розыске, возбуждены уголовные дела. В мировом масштабе контрабанда исторических предметов по-прежнему занимает третье место после незаконного оборота оружия и наркотических веществ. Согласно данным Управления ООН по наркотикам и преступности, ежегодный объём незаконного оборота культурных ценностей во всём мире составляет от 3,4 до 6,3 млрд долларов США[1]. Учитывая необходимость предотвращения утраты государствами объектов культурного наследия, а также принимая во внимание, что каждый народ обладает собственной историей, национальной самобытностью и культурным наследием, особую актуальность приобретает разработка новых научно-теоретических подходов к предупреждению незаконного оборота культурных ценностей и совершенствованию их охраны, а также обеспечение надлежащей уголовно-правовой защиты общественных отношений в данной сфере.

В странах мира в условиях высокого спроса на культурные ценности особое значение приобретает разработка эффективных правовых механизмов противодействия их незаконному обороту, совершенствование мер правового воздействия, направленных на пресечение деятельности организованных преступных групп, изучение правоприменительной практики квалификации преступлений данной категории, выявление существующих проблем в рассматриваемой сфере и разработка научно обоснованных путей их устранения. Вследствие незаконного оборота культурных ценностей такие страны, как Египет, Ирак и Сирия, ежегодно несут многомиллиардные экономические потери, масштабное разграбление культурных ценностей в этих государствах также нанесло существенный ущерб их туристическому потенциалу[2]. К настоящему времени более чем в 20 государствах разработаны законодательные механизмы регулирования и контроля в сфере обращения культурных ценностей, в частности в Китае, США, Италии, России, Азербайджане, Молдове, Таджикистане, Туркменистане и Кыргызстане приняты специальные законодательные акты, регулирующие отношения в данной сфере и устанавливающие меры юридической ответственности за нарушения соответствующего законодательства, что

[1] https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/2295245

[2] Ross, P. The Economic Impact of Illicit Trade in Cultural Property. Journal of Cultural Economics, 41(1), p. 55.

свидетельствует о возрастающей значимости противодействия незаконному обороту культурных ценностей в мировом масштабе.

В Республике Узбекистан в последние годы наблюдается рост правонарушений, связанных с хищением предметов и коллекций, имеющих культурную, историческую и археологическую ценность, в том числе посредством их подделки, а также с их незаконным перемещением через таможенную границу, при этом, согласно данным МВД Республики Узбекистан, в базе данных «Антиквариат» по республике объявлен розыск 3 710 похищенных и разграбленных культурных ценностей. В отношении культурных ценностей, находящихся в указанном розыске, возбуждены уголовные дела по статьям 167 и 169 Уголовного кодекса Республики Узбекистан. В частности если в 2015 году по статье 167 УК было зарегистрировано 2 преступления, то в 2022 году их количество увеличилось до 12, а в 2025 году достигло 19, кроме того, в настоящее время в отношении 164 культурных ценностей через информационную базу данных Интерпола «Works of Art» объявлен международный розыск, в связи с чем по фактам их незаконного оборота возбуждены уголовные дела в городе Ташкент, Ферганской, Бухарской, Хорезмской и Ташкентской областях[3]. В этой связи возникает необходимость в комплексном научном исследовании системы противодействия преступлениям, связанным с незаконным оборотом культурных ценностей, а также в разработке научно обоснованных предложений, направленных на устранение имеющихся правовых пробелов.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Конституции Республики Узбекистан (2023), Уголовном кодексе Республики Узбекистан (1994), Законе Республики Узбекистан «О вывозе и ввозе культурных ценностей» (1998), постановлениях Президента Республики Узбекистан «О мерах по развитию сферы услуг в музеях» № ПП-261 (2022), «О дополнительных мерах по организации деятельности органов государственной таможенной службы и дальнейшему совершенствованию таможенного администрирования» № ПП-122 (2025), постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об упорядочении вопросов вывоза и ввоза культурных ценностей в Республике Узбекистан» № 131 (1999), приказе Таможенного комитета «Об исполнении постановления Президента Республики Узбекистан от 25 марта 2025 года № ПП-122» № 68, а также в других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы.

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий в республике. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и разработка путей их реализации в целях социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства».

[3] Письмо Департамента цифровых технологий и правовой статистики МВД Республики Узбекистан от 11 июня 2026 года за № 7/5-1245

Степень изученности проблемы. Отдельные аспекты сохранения и охраны культурных ценностей нашли отражение в научных трудах Рустамбаева М.Х., Абдукодирова Ф.Ф., Хасанова Т.Х., Мухамедова О.М., Муминова Х.М., Алимова Ш.А., Тошбоева Н.Р., Саидова А.С., Бобоева Б.М., Икрамова Ш.Р., Курбоновой Д., Хайруллаева М., Ахмедовой Э., Габидуллина Р., Гулметова Э., Кабулджоновой Т., Расулова М.Ф., Гофурова Ф.Р., Хужакулова Л.Б. и других исследователей. Однако до настоящего времени узбекскими учёными не проводилось отдельного монографического исследования уголовно-правовых аспектов предупреждения незаконного оборота культурных ценностей.

Теоретические и практические аспекты противодействия незаконному обороту культурных ценностей исследовались учёными государств – участников СНГ, в том числе Ильинским М., Гуряковым А.Д., Гусевым В.С., Логиновой В.И., Носовым К.П. и другими исследователями.

Вопросы, связанные с культурными ценностями, исследовались такими зарубежными учёными, как Котляров Д.М., Фиклеева Ю.А., Иванцов С.В., Клебанов Л.Р., Диканов К.А., Русанов Г.А., Ходанов А.И., Косина Е.М.[4]

Однако сохраняется необходимость исследования преступлений, связанных с культурными ценностями, с учётом современных реалий и изменений, внесённых в законодательные акты. Вместе с тем в ранее проведённых научных исследованиях недостаточно изучены вопросы установления специальной ответственности за совершение преступлений данной категории, а также эффективности применяемых мер наказания в целях их предупреждения.

Связь темы исследования с планами научно-исследовательской работы высшего образовательного учреждения, в котором выполнена работа. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с планом научно-исследовательских работ Правоохранительной академии Республики Узбекистан в рамках научно-исследовательского проекта на тему «Вопросы совершенствования ответственности при противодействии незаконному обороту культурных ценностей».

Цель исследования заключается в разработке научных предложений и рекомендаций по установлению ответственности в борьбе с незаконным оборотом культурных ценностей, а также совершенствованию её правовых основ.

Задачи исследования:

